



BUXORO XONLIGI VA AMIRLIGINING XIVA XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI

Tilabjonova Sevinch Shuxrat qizi
Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
E-mail: tilabjonovasevinch@gmail.com.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.12606711>

ARTICLE INFO

Received: 27th June 2024

Accepted: 28th June 2024

Published: 01st July 2024

KEYWORDS

*Xiva, Buxoro, hokimiyat, siyosat,
xutba, xonlik, kurash*

ABSTRACT

Mazkur maqolada Buxoroda o'рта asrlarda Shayboniylar va Ashtarxoniyalar hukmronligi davrida Xiva xonligi bilan yuritgan o'zaro munosabatlari, do'stlik, elchilik, savdo-sotiq aloqalari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, Xiva va Buxoro xonlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar to'g'risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

XVIII asrga kelib, 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo'liga ega o'zbek davlatchiligida bo'linish, tarqoqlik holati ko'zga yaqqol tashlanadi. Bir so'z bilan aytganda, millat va jamiyat boshqaruviga da'vogar hokimiyat uch yerda — Buxoro, Xiva, Qo'qonda alohida-alohida mujassamlashgandi. Ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatda uch hokimiyatchilik g'olib kelgan edi. To'g'ri, mazkur holatning yuzaga kelishida muayyan sabablar bo'lgani aniq. Ammo har qanday jarayonga beriladigan baho, eng avvalo, o'sha paytdagi manzara, kechib borgan ijtimoiy-siyosiy jarayon va yetib borgan nuqtaga — natija bilan o'lchanarkan, demak, qanday bo'lishidan qat'i nazar, bu sabablarni biz oqlay olmaymiz. Ya'ni davlatchilikdagi bo'linish, uch hokimiyatchilikning yuzaga kelishi oxir-oqibatda davlatning kuchsizlanishi va yemirilishiga, boshqa omillar bilan qo'shilib Rossiya bosqiniga dosh berolmay qaramlikka yuztuban bo'lishiga olib kelgan.

Baroqxon davrida Movarounnahr bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Hindiston, Xitoy, Sibir o'rtasida savdo-sotiq, elchilik munosabatlari rivojlangan.

Elbarsxon davridayoq (1511-1516 tax.) Xiva xonligining siyosiy geografiyasi shakllangan edi, desak to'g'ri bo'ladi. Zero, bu paytda xonlik g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi havzasi, janubda Atrek daryosi va Saraxs atroflarigacha bo'lgan hududni o'z ichiga olgandi. Arabxon (1602—1621) davrigacha poytaxt Urganch hisoblanib, keyin esa Xivaga ko'chirilgan. Shunga ko'ra zamonaviy tarixshunoslikda xonlikni Xiva xonligi deyish odat tusiga kirgan. Xivaliklar mazkur faoliyat maydoni bilan chegaralanmasdan ichki Xuroson, Buxoro xonligi yerlariga doimo yurishlar uyushtirib turganliklarini bilamiz.

O'z o'rnida Buxoro ham Xorazmni markazga bo'ysundirishga ko'p marta harakat qilgan. Chunonchi, shayboniylardan Ubaydullaxon va Abdullaxon II davrlarida xivalik shayboniylar buxorolik suloladoshlariga bo'ysunishga majbur bo'lganlar. Ammo Abdullaxon II o'limidan so'ng o'sha paytdagi Xiva xoni Hoji Muhammadxon (1560—1602) yana mustaqil siyosat yurgizish imkoniga ega bo'lgan.¹

¹ B. J. Eshov, A. A. Odilov. O'zbekiston tarixi II qism. «Donishmand Ziyosi» Toshkent-2020.

XVII asrga kelib esa Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi munosabatlarda bir oz o'zgarish yuz bergan. Yani shu asrdan boshlab Buxoro xonligi boshqaruvini qo'lga olgan yangi sulola – ashtarxoniylar namoyandasi Nazr Muhammadxon zamonida Xivada uning nomidan xutba o'qilgani 1678-yili keyingi ashtarxoniylardan Subhonqulixonning Xivaga o'z noibi Shohniyoz eshik og'aboshini yuborgani hisobga olinmasa, xivaliklardan Abulg'oziy Bahodirxon (1644-1664) va Anushaxon (1664-1687) davrlarida Buxoro xonligi ichkarisiga muttassil harbiy yurishlar uyushtirilib turilganini bilamiz. Xususan, Abulg'oziy Bahodirxonning o'zi olti marta shunday tadbirni amalga oshirgan bo'lsa, o'g'li Anushaxon 1684-yili hatto Samarqandni egallab bu yerda o'z nomidan xutba o'qitgan. Lekin shunga qaramay Buxoro keyinchalik ham Xivaga nisbatan olib borgan siyosatidan voz kechmagan.

Chunonchi, yuqorida tilga olingan Muhammad Amin inoq Xivada hokimiyatni qo'lga olishda Buxoro madadiga suyangani ma'lum. Bu haqda xorazmlik tarixchi Munis guvohlik beradi. Xuroson uchun kurashni asosan XVII asrdan boshlab xivaliklar olib borganlar. Buxoro siyosiy kuchlari bu borada nisbatan ancha sust siyosat yurgizib, ko'proq Qo'qon va Xiva xonliklariga qarshi kurash bilan band bo'lganlar. Buni ham tushunsa bo'ladi. Chunki Buxoro o'rtada bo'lib ham sharq, ham g'arb tomonda kurash olib borgan. Shuning uchun ham xivaliklarning Xurosonga nisbatan siyosati jadalroq bo'lgan. Chunonchi, Olloqulixon boshchiligida olti marta, Muhammad Amin II (1845—1855) davrida esa o'ndan ortiq bor Xurosonga yurish qilingan. Ammo Buxoro va Xuroson «ishqi»da bo'lgan qo'ng'irotlar bostirib kelayotgan Rossiya xavfiga boshqa xonliklar kabi qandaydir bir beparvolik bilan qaraganlar.²

Shoh Muroddan farqli o'laroq, uning vorisi amir Haydar (1800-1826) hukmronlik yillari mamlakatda notinchlik hukm suradi. Ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik – xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi. Amir Nasrulla Xiva va Qo'qonni yana Buxoro atrofida birlashtirishga ko'p uringan siyosatchidir. Chunonchi, u ilgari qo'ldan ketgan Marvni poytaxtga bo'ysundirish

uchun xivaliklar bilan ko'p kurashadi va 1843 yili maqsadiga erishadi. Ammo xivaliklar ham bo'sh kelmay 1855 yili yana bir bor Marvni ishg'ol qiladilar. Xivaliklar bu bilan cheklanmay Chorjo'yga ham doimo tahdid solib turganlar. O'z o'rnida esa amir Nasrulla Xiva xonligi doirasidagi Hazoraspg'a yurish uyushtirgani ma'lum.³

Anushaxonning vorisi Ereng Muhammadxon 1687 yili Buxoroga bosqin qilganida Subhonqulixon bu hujumni qaytarish bilan cheklanmay, 1688 yilda o'ldirilgan xon o'rniga Xiva taxtiga o'z noibi Amir Niyoz eshiko'g'aboshi Shohniyozni o'tqazgan. Shu tariqa Abdullaxon II davridagidek Xiva xonligi yana Buxoroga qo'shib olinadi va mintaqada yagona o'zbek davlati qaror topgan.⁴

Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonga qo'shin tortib ketganligidan foydalanib, Olloqulixon 1842 yilning boshida qo'shinlari bilan Chorjo'yga bostirib boradi. Buni eshitib qolgan Nasrullo Qo'qondan Buxoroga tezda qaytadi, lekin Olloqulixon o'zining yerlariga qozoqlar bostirib kirganligini eshitib, u ham Buxoro yerlaridan tezda Xivaga qaytib keladi va ko'p o'tmay vafot etadi. Olloqulixon Buxoro bilan sulh tuzilganiga qaramay yetti marta Buxoro xonligi hududiga yurishlar qilib qishloqlarni talab qaytgan. Xurosonga 5 marta yurish qilgan. Xiva xonligi tomonidan uyushtirilgan bir qancha bosqinchilik yurishlari asosan xalq ommasi ko'magida qaytarildi.⁵

² Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. 286-287-b.

³ A. Sagdullayev, B.Aminov, O'.Mavlonov, N.Norqulov "O'zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti" 1-qism "Akademiya" Toshkent-2000

⁴ Ilhomov Z. A. O'zbekiston tarixi. Toshkent – 2022. 61-62-b.

⁵ O'zbekiston tarixi. Qisqacha ma'lumotnoma. 140-b.

Xulosaqilib shuni ta’kidlash joizki, Buxoro ikki qudratli sulola Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi va amirligi bo’lgan davrlarda ham Xiva xonligi bilan o’zaro aloqalari doim ham yaxshi bo’lmagan. Ammo shunga qaramasdan ular o’rtasida XVI – XVII asrlarda o’zaro munosabatlar ancha yaxshilandi va rivojlandi. Xonliklar o’rtasidagi munosabatlar doimiy ravishda ham dushmanlik ko’rinishida bo’lamagan ba’zi davrlarda elchilik, do’stlik, savdo-sotiq aloqalari ham ancha takomillashgan va yaxshilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ilhomov Z. A. O’zbekiston tarixi. Toshkent – 2022
2. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchilik tarixi.
3. B. J. Eshov, A. A. Odilov. O’zbekiston tarixi II qism. «**Donishmand Ziyosi**» Toshkent-2020.
4. A. Sagdullayev, B.Aminov, O’.Mavlonov, N.Norqulov “O’zbekiston tarixi: Davlat va jamiyat taraqqiyoti” 1-qism “Akademiya” Toshkent-2000

